



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Shu kunlarda mamlakatimizning barcha hududlarida, madaniyat va san'at saroylarida Yangi yil bayrami tadbirlari bo'lib o'tmoqda. Qorbobo va Qorqiz, turli ertak qahramonlari ishtirokidagi tomoshalar yoshlarni vatanparvarlik, do'stlik, fidoyilik, tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish kabi ezgu g'oyalarga undamoqda.

Bu yilgi «Prezident archasi» shodiyonalari ham saodatli, tinch-osoyishta kunlarimizga, osmonimiz musaffoligi-yu, Istiqlol ne'matlariga shukronalik tuyg'ulari bilan uyg'un bo'ldi. Bolalar uchun beg'ubor orzu-umidlar bayramiga aylangan ushbu tantanalar davomida Prezidentimiz sovg'alari kichikintoylarning quvonchiga quvonch qo'shdi.

(Davomi 2-betda)

PREZIDENT ARCHASI ORZULARIMIZ BARCHASI

QUTLUG' BO'LSIN YANGI YIL



Qutlug' bo'lsin Sizga Yangi yil,
Hamroh bo'lsin yaxshi kayfiyat,
Ne maqsadga maskan bo'lsa dil,
Ravo bo'lsin har yaxshi niyat!

Rizqi butun bo'lsin har uying,
Nasibasi - to'lug' dasturxon.
Shodlik bo'lsin, mudom to'y bo'lsin,
Ostonadan arimay mehmon.

Qutlug' bo'lsin kelayotgan yil,
Barchamizga baxt ola kelsin.
Orzu sari boraylik dadil,
Shon-u sharaf, shahd ola kelsin!

Muhiddin OMON

SOG'LOM BOLA -
OILA MEVASI

2-bet



PREZIDENT ARCHASI – ORZULARIMIZ BARCHASI

(Davomi. Boshi 1-betda)

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Sen yolg'iz emassan» respublika bolalar jamoatchilik jamg'armasi tomonidan bir qator tashkilotlar hamkorligida ushbu bayramni yuksak saviyada o'tkazish maqsadida bolalar uchun turli-tuman, ajoyib tuhfalar tayyorlandi.

Ayni kunlarda mas'ul tashkilotlar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlardagi Mehribonlik va Muruvvat uylari o'g'il-qizlari, «SOS – bolalar mahallalari» tarbiyalanuvchilari, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun Prezident sovg'alari tayyorlanib, joylarga yetkazilmoqda. Bu e'tibor ularning yaxshi ta'lim-tarbiya olishi, o'z bilim va salohiyatini yuksaltirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sovg'alar 29-dekabrda boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda tashkil etilgan «Prezident archasi» tadbirlarida kichikintoylarga tantanali ravishda topshirildi.

Bu kabi tadbirlar yosh avlod kamoloti, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida voyaga yetishi, Vatani va xalqi taqdiriga dahldorlik hissi bilan ulg'ayishi, porloq istiqbol yo'lida ko'rsatilayotgan ulkan e'tiborning amaliy ifodasidir.

2016-yil Yurtboshimiz tashabbusi bilan xalqimizning azaliy maqsad-muddolariga hamohang tarzda «Sog'lom ona va bola yili», deb nomlanishi bu boradagi ezgu ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishi, shubhasiz.

Shavkat KAZAKBAYEV

Yurtimizda farzandlarimizning sog'lom voyaga yetishi uchun qilinayotgan ezgu ishlarining salmog'i beqiyosdir.

«Bolalarni asraylik!» xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan reytingda o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatayotgan davlatlar orasida O'zbekiston 9-o'rinni egallagan ham barchani yosh avlodning kelajagiga bo'lgan ishonchini yanada orttiradi. Ularning jismonan sog'lom, irodasi mustahkam, qat'iyatli bo'lib o'sishida esa sog'lom onalarning o'rni beqiyos.

Kuni kecha poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 224-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir



TINCHLIK BOLALARNING BAXTI, ONALARNING SAODATIDIR

Yurt tinchligi, qalb osoyishtaligi, har bir kunimiz mazmunli, taassurotlarga boy bo'lishi, albatta, o'zimizga bog'liq.

Muhtaram Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat» nomli ma'ruzasida ta'kidlaganidek, AQSHdagi Gellap instituti deb nom olgan ijtimoiy fikrni o'rganish markazi tomonidan «Qonuniy tartiblarga itoat qilish indeksi» degan mavzuda 2015-yilda so'rovnoma



N. SULTONOV olgan suratlar

o'tkazilgan. Jahon miqyosidagi 141 ta mamlakatdan katta yoshdagi 142 ming shaxsning fikri o'rganilgan. So'rovnomada 3 ta savol o'rta qo'yilgan.

1. Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumandagi mahalliy politsiyaga ishonasizmi?

2. Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumanda kechasi xavf-xatardan qo'rqmasdan yolg'iz yura olasizmi?

3. Oxirgi o'n ikki oyda siz va oila a'zolaringizning pul va mol-mulki o'g'irlangan holat sodir bo'lganmi? degan savol berilgan.

Bizning mamlakatimiz bu so'rovnoma natijalariga ko'ra dunyodagi 141 ta davlat orasida 2-o'rinni egallaganini faxr bilan tilga olish mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston «Butunjahon baxt indeksi»da 158 ta mamlakat o'rtasida 44-pog'onani, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egallaganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlash joiz.

Bugun yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi, bu sohada olib borayotgan barcha ishlarimiz xalqaro miqyosda keng e'tirof etilgan, hech shubhasiz, barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Serquyosh yurtimizda 130 dan ziyod turli millat va etlatlar bir oila sifatida ahil, inoq, do'st bo'lib yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18- maddasida ham O'zbekiston fuqarolari tili, dini, millatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar, deb yozib qo'yilgan. Bugun o'g'il-qizlarimiz chet tillarida erkin so'zlashmoqdalar. 2012-yil 10-dekabrda O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori qabul qilingandi. Natijada, umumiyevropa (CEFR) kompeten-



siyalari asosida chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti tasdiqlandi. Unga ko'ra, 1–4-sinflarga bosqichma-bosqich haftasiga 2 soatdan, yilliga 68 soat qo'shimcha kiritildi. Mazkur sinflar uchun 13 425 to'plam texnik vositalar, 5–9-sinflar uchun 2985 to'plam o'quv kompyuter va chet tili sinflari bilan jihozlandi. 17222 ta chet tili kabinetlari o'quv adabiyotlar, lug'atlar, ko'rgazmali qurollar va DVD magnitola bilan ta'minlandi. 2013–15-yillarda jami 5 398 895 nusxa o'quv darsliklari chop etildi.

Bu kabi ibratli ishlarning son-sanog'i yo'q. Bunday ezgu ishlar, eng avvalo tinchlik, osoyishtalik hukm surayotgan yurtgagina yarashadi.

Tinchlik bor ekan, dillarda nur, qalblarda orom, ko'ngillarda xotirjamlik bo'laveradi. Chunki tinchlik farovonlik, obodlik, baxtivorlik belgisidir. Tinchlik bolajarning baxti, onalarning saodatidir.

Kirib kelgan «Sog'lom ona va bola yili»da betakror zaminimiz yanada gullab-yashnasin, 2016-yilimiz barchamizga muborak bo'lsin!

SOG'LOM BOLA – OILA MEVASI

– Qizim Muxlisa shu sinf sardori, a'lo baholarga o'qiyapti, – deydi Shahnóza Oloviddinova. – Ustozi Muhayyo Ikromovadan yozishni, o'qishni, rasm chizishni, ustoz Gulchehra opadan ingliz tilini, Ma'pura Qamariddinovanadan esa musiqa bo'yicha saboq olmoqda. Bugun qizim davlatimiz ramzlariga bag'ishlangan she'rlarni dona-dona yod olganini ko'rib, xursand bo'ldim. Farzandlarimning kelajagi uchun o'zim ham sog'lom bo'lib, sog'lom sharoit yaratib berishga harakat qilmog'im zarurligini yana bir bor angladim.

Oilada sog'lom farzand tug'lsa, o'sib ulg'aysa, ota-onaning, millatning eng ezgu orzusi, oliy baxtidir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, sog'lom ona va bola haqidagi hayotbaxsh g'oyalar, dastur bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar millatimizning, farzandlarimizning sog'lom, ma'nan yetuk bo'lib voyaga yetishiga qaratilgan ezgu ishlar bardavom etayotganligidan dalolat berib, farzand tarbiyasi – millat, xalq tarbiyasi ekanligini teran anglashga undaydi.


Nodira NAZAROVA, Jamoliddin ABDULLAYEV

so'zga chiqqanlar ana shu ezgu g'oyalar haqida to'qinlanib gapirdilar. Unda maktab direktori Mohira Safayeva, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor



o'rinbosari Nodira Alimjonova, 1-«A» sinf o'quvchilarining ota-onalari ishtirok etishdi. Robiya Tohirova, Muslima Ibragimova, Muxlisa Kamoliddinova, Kamron Xolmirzayev, Otobek Majidov, Javohir Abdurahmonov kabi o'quvchilar o'zlari yod olgan she'r va qo'shiqlardan aytishdi, raqslar ijro etishdi, badiiy chiqishlari orqali yig'ilganlarni xushnud etdilar.





Yozuvchining (tik turgan) yoshlik davridan saqlanib qolgan surati

Diqqat! Yangi ruken: Bolalik kunlarimda...

Aziz o'quvchilar! Inson hayotining eng go'zal damlaridan biri BOLALIKdir. Har bir inson irqi, millati, kasbi-koridan qat'iy nazar bolalikning rangin bog'lariga sayr etgan.

Undagi orzu-umidlar, yorug' xayollar katta hayot yo'lini belgilaydi.

«Bolalik kunlarimda...» deb nomlangan yangi ruken orqali mustaqil yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan fidoyi zahmatkashlar, olimlar, shoir-u yozuvchilar, ustoz-murabbiylar, san'atkorlarning bolalik bilan bog'liq fikr-u mulohazalari va quvnoq voqea-hodisalari bayon etiladi.

O'ylaymizki, ushbu ruknda beriladigan maqolalar sizlarga ma'qul bo'ladi. Yangi sahifamizning ilk mehmoni O'zbekiston xalq yozuvchisi, sevimli adibimiz Xudoyberdi TO'XTABOYEV bo'ladi.

«Sariq devni minib» oz fursatda dunyoning 30 dan ortiq, jumladan, rus, ukrain, belorus, moldavan, eston, latish, chex, italyan va boshqa tillarga tarjima bo'lgan, juda ko'p nusxalarda nashr qilingan. «Sariq devning o'limi» esa 44 nashrni ko'rdi.

Besh yoshimizdan tog' etagiga qo'y, mol boqishga chiqardik. Kattalar biz yoshlarni bekor yurmaslikka, mehnat qilishga o'rgatishardi.

Bolalik chog'larimda yagona transport vositasi Qobulov

yetkazganiga shukur deyman.

Qishlog'imizdagi hushtak yasovchi ustani ham yaxshi eslayman. Qushlar shaklidagi hushtaklarni chalganimizda, qarg'a, chumchuq, bulbul sayraganday bo'lardi. Yana bir qiziq voqea sira yodimdan chiqmaydi: bir gal qishlog'imizga sayyor sirk kelgan.

Hayvon o'rgatuvchi ayiqqa qand bersa, u turli harakatlar qilar ekan. Mening xo'tikcham minishga

matodan tikilgan xalta – sumka bo'lardi. Shu o'rinda sizlarga kitob bilan bog'liq bir voqeani so'zlab beray: bir qo'shimiz bor edi. U bir kuni menga kitob berdi. Men uni eng qimmatli sovg'a sanab, enam bergan matoga o'rab, maktabga olib keldim. Bolalar bir ko'ray, bir ko'ray, deb talashib ketishdi. Gap nimadalinigi bilmagan ustozimiz, darsda shovqin solyapsan, jim o'tir, deb urishib berdi. Men qo'rqib sinfdan qochib chiqib ketdim. Ancha vaqtgacha ustozimdan qo'rqib, maktabga bormay yurdim. Ustozim gap nimadalinigi bilgach, aytganingda men ham sizlar bilan birga kitobni tomosha qilardim, degan. Hozir esa do'konlarimizdan istagan kitobni topib, istagancha o'qiyisiz.

Urush bizning qishloqqa ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Oyoqyalang maktabga borgan kunimiz ko'p bo'lgan. Qorni-miz to'yib ovqat ham yemaganmiz. Ammo mehr-oqibat, bir-birimizga madad bo'lish qon-qonimizda bo'lganligi sababli, og'ir kunlarni yengib o'tganmiz... Mustaqillik davridagi o'g'il-qizlarga havasim keladi. Yurtimiz tinch, osoyishta. Qayoqqa qaramang, buni-yodkorlik ishlari avjida, bozorlarimiz esa to'kin-sochin. Yuksak maqsadlar sari olg'a boshlayotgan Yurtboshimiz va yurtdoshlarimiz bor. Ayniqsa, yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarni aytmaymizmi: har sohada ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarga munosib yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Intilishlarimiz samarasi namoyon bo'lmoqda. Har yili 1-sinfga chiqayotgan jajji o'g'il-qizlarga darsliklar-u o'quv qurollarini sovg'a qilinayotgani-chi. Bunday e'tibor dunyoning qayerida bor?!

BOLALAR DUNYOSIDA O'ZIMNI TOPDIM

Mening erkato'y, yayrab o'sayotgan o'g'illarim, quvnoq, dilbar, qizlarim! Bugun men 85 yoshga kirayotgan bo'lsam, 80 yil avvalgi bolalik xotiralarimni, o'sha davrlardagi mehridaryo odamlar haqida sizlarga so'zlab bermoqchiman.

Zero, bolaligim xotiralarimni o'qib, buyuk shoir Alisher Navoiyning «El nechun topgay menikim, men o'zimni topmasam» degan dono naqliga men kabi amal qilib, o'zingizni ertaroq anglashga intilasiz, oldingizga buyuk maqsadlar qo'yib, ularni amalga oshirishga harakat qilasiz, degan umiddaman.

Qishlog'im Qatron tog' etagidagi so'lim bir maskan edi. Bir-biriga o'xshamas bog'lar ko'p bo'lardi. Biz ana shu bog'larda katta bo'lganmiz. Tup pishishidan to sariq behilar uzib olinmaguncha u yerdan chiqmasdik. Bobo, buvilarimiz bog'ga kirib, mevalardan yeyaveringlar deyishsa-da, biz nimagadir devordan oshib tushishni yaxshi ko'radik. Nega shunday qilganligimizni haligacha bilmayman. Balki bu ham bolalikning bir gashti bo'lsa kerak. Bolalar bilan «Zuvildoq», «Chikildak», «Eshak mindi» o'yinlarini o'ynardik. Qizlar esa «Qoch bolam, soy keldi», «To'p tosh» o'yinlari bilan vaqtini chog' o'tkazardi. Ota-bobolarimiz baquvvat bo'lib o'sishimiz uchun shunday o'yinlarni o'ylab topishgan bo'lsa, ajabmas.



domlaning velosipedi edi. Biz bolalar u kishi o'tib qolsa, mo'jizani ko'rgandek qo'ng'irog'ini chalib bering, qo'ng'irog'ini chalib bering, deb yugurib charchamasdik. O'shanda 6 yoshlarda bo'lsam kerak. Qo'shimizning uyidan chiqib kelayotsam, uzoqdan bir bahaybat mahluq kelyapti. Enamning ertaklaridagi dev shu bo'lsa kerak, deb dodlab uni oldiga tushib, uyga qarab qocha boshladim. Keyin bilsam, bu qishlog'imizda men ko'rgan birinchi mashina ekan. U davrlarda asosiy transport eshak hisoblanardi. U ham o'ziga to'q odamlarda bo'lardi. Shularni eslagan chog' atrofga razm solaman. Binolarimiz muhtasham, ravon ko'chalarimizdan qatnayotgan turli rusumdagi mashinalar ko'zni quvontiradi. Sho'x-shodon maktabga borayotgan, o'z ishiga oshiqayotgan, umridan rozi bo'lib yashayotgan yurtdoshlarimni ko'rib, shu kunlarga

ko'nmaydigan qaysar edi. Bu tomoshalardan keyin eshagimga qand bersam, zora yuvosh bo'lib qolsa, deb o'yladim.

Enamning sandig'idan qand olib chiqdimda, unga bera boshladim. Lekin jonivor yuray demaydi. Oxiri og'zini katta ochib, mana shu qandni yeb olgach, yursa kerak, deb o'ylab og'ziga qo'l'imni tiqqandim, u qo'l'imni tishlab oldi. Enam o'shanda: «Ana, ko'rdingmi, eshak qand berganing uchun emas, qandni o'g'irlab chiqqaning uchun tishladi. O'g'irlikning oxiri voy», deganlar.

1-sinfda Abdullayev degan domla yonimga o'tirib olib, harflarni chiroyli yozishni o'rgatgan. 2-sinfidagi Mehmonali Tursunov domlamiz so'yning suvi ko'tarilib, maktabga o'tolmay qolganimizda, uzun rezina etik kiyib olib, har birimizni soydan ko'tarib o'tardi. Darsimiz tugagach, yana soydan o'tkazib qo'yardi. Ermatov degan urushdan nogiron bo'lib qaytgan domla ham bo'lardi. Bolalarni xafa qilib qo'ysa, kechirim so'rab, uyigacha borardi. U kishi vafoti oldidan hammamizni chaqirib, «Men sizlarni o'qita olmadim. Yaxshi o'qing, maqsadingizga yeting», deya nasihat qilgan. O'shanda bizlarni tashlab ketmang deb rosa yig'laganmiz.

Peshingacha ikkita sinf, peshindan keyin yana ikkita sinf o'qirdi. Doskani o'rta-sidan chiziq chizib, ikkita sinf dars o'tardi. Papka yo'q edi, uning o'rniga

Bolajonlarim, nabiralarim, a'lo baholarga o'qishingiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan jannatmakon yurtda o'sib-ulg'aymoqdasiz. Yaxshi o'qimasangiz, oldingizga buyuk maqsadlar qo'yimasangiz, armonda qolasiz. Bobongizning o'g'itlariga amal qilsangiz, albatta, niyatigizga yetasiz. Bu baxtli kunlarni qadriga yetish, asrab-avaylash ham sizning qo'lingizda ekanligini unutmang, bolajonlarim!

Yangi «Sog'lom ona va bola yili» barchamizga qutlug' kelsin.

Nodira YORMAT qizi yozib oldi



Toshkent pedagogika kollejining 2–3-bosqich o'quvchilari tanlagan kasblari bo'yicha o'layotgan bilimlarini amaliyotda qo'llash maqsadida poytaxtimizdagi umumta'lim maktablari hamda MTMLarda amaliyot o'tashadi.

MAROQLI O'TGAN MASHG'ULOT

Yaqinda men ham amaliyot rahbarimiz Marhabo Abdulvaliyeva bergan tavsiyalar bo'yicha Shahnoza Alimova, Sevara Jo'rayeva kabi dugonalarim bilan poytaxtimizdagi 265-MTMning «Binafsha» nomli 1-katta guruhida «Xona o'simliklari» mavzusida mashg'ulot o'tkazdik. Unda bolajonlarga

xona gullaridan biri kaktus, uning tuzilishi, parvarishi haqida so'zlab berdik. Yana bir ochiq mashg'ulotimiz esa loy ishi bo'ldi. Unda bolalarning loyni silliqlash, bostirish, shakl ajrata olishga doir tushunchalari rivojlantirildi. Artyom Nazarov, Zulayho Ortiqova, Suhrob Ozodov kabi kichikintoylar loy ishini zo'r qiziqish bilan bajardilar va yasagan ishlari barchaga namuna qilib ko'rsatildi.

Mahliyo BOTIROVA,
kollej o'quvchisi



Hovli o'rtasidagi pastqam supa ustiga qaydandir oppoq zarra kelib tushadi. Keyin yana bir, keyin yana bir, ikki, uch... Supa ustini qoplay boshlagan oqlik u yerga sig'mayotgandek pastga ena boshlaydi va bu ajib manzara butun hovli bo'ylab yoyiladi. Tevarakatof bir xil tusga kiradi. Yer ostiga sig'mayotgandek bo'rtib turgan do'ppayma toshcha, hali yerga singib ketishga ulgurmagani yomg'ir ko'lmalchalari-yu yopishqoq loygarchilik, barcha-barchasi o'sha zarralar og'ushiga g'arq bo'ladi. Atrofni oqlik, beg'uborlik egallaydi.

OPPOQ BEG'UBOR TONGLAR

(Badia)



Oppoq qor parchalari... Beg'ubor oqlik... Kishiga ana shunday shodumonlik, tabiatda o'zgacha sehr va shu asnodan inson va borliq o'rtasida so'nmas mehr uyg'ota oluvchi sehrli olamdir u.

Ana shu go'zallikning bir parchasini qo'lingga olib unga boqarkansan, beixtiyor jilmayib qo'yasan. Asta-sekin ana shu billur manzaraga maftun bo'lasan. Kaftingda qiqirlab turgan bu yoqimtoy yulduzchalar bir dam jonsizdek tuyuladi. Hattoki sening birgina istaging uni yo'q qila oladigandek. Lekin bunday bo'lmaydi. Qo'lingdagi mo'jiza go'yoki o'z sehrini ko'rsatadi va seni do'stlik va birodarlik tomon chorlayotgandek so'zlay boshlaydi. Dastlab, ovoz egasini topmoq ilinjida tevarakatofga alanglaysan. Hattoki bu qo'ng'iroq sadolar ko'nglingdagi boshqa tuyg'ularni-da uyg'otib yuboradi. Lekin mo'jiza davom etadi. Sezganing, qo'lingdagi qor zarralari birin-ketin, dikridikir sakragancha, bir-biriga gal bermay

chug'urlashib xayollaringni bo'lib yuboradi. Keyin ularga tikilibroq qaraysan. Shunda ko'rsan-ki, rostdan qor so'zlayapti. U senga nimalarnidir tushuntirmoqchidek ko'zlarini pipiriraganipipiriragan. Rangsiz, ammo shakli-shamoyilini dam-badam o'zgartirib turayotgan lablarida seni hayratga solmoqda. Barchasi fusunkor, barchasi dilga yaqin. Asta-sekin u sening yuragingga kirib boradi. Noodatiy holdek u ko'ksingni ilita boshlaydi. Shu tarzda sen qorning maftuniga aylana borasan.

Tong otadi. Oppoq tong, beg'ubor tong. Qorga termulasan, ko'kka tikilasan. Hamma yoq oqlik, hamma yoq musaffo. Shu tarzda sening tonglaring ko'klam qadar ana shunday mo'jizalar bilan otaveradi. Har tong sehrli qor parchasining beg'ubor, oppoq kulgulari yuragingga iliqlik olib kiraveradi.

Muhabbatga limmo-lim olam, Nurafshondir bu kungi onlar. Ezgulikka chorlaydi har dam, Oppoq tonglar, beg'ubor tonglar!

Farhod ESHMO'MINOV

«HILOLA»NING LOLASI

Sevinch NORQULOVA poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi. U tirishqoq, barcha fanlarni a'loga o'zlashtirishga harakat qiladi. Birinchi va ikkinchi chorakni «5» baholarga yakunladi. Sinfdoshlarining barchasi bir-biri bilan ahil-inoq.

Ular bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlashgan. Darsdan so'ng kimdir sport to'garagiga shoshsa, yana kimdir fan to'garagiga oshiqadi. Sevinch esa vaqt topildi deguncha «Hilola» namunali bolalar folklor dastasida paydo bo'ladi. Maktab yaqinida joylashgan 6-aholi dam olish markazi qoshida etilgan mazkur dastada ustoz Hilola Ilmuratovadan raqs sirlarini o'rganishni boshlaganida, qizcha endigina 1-sinfga qadam qo'ygandi. O'shanda uni hamma «Hilola»ning lolasi» deb atashardi. Endilikda tuman, shahar, hatto respublikada bo'ladigan ommaviy tadbirlar

ham Sevinchning rango rang raqslari bilan yanada fayzli o'tmoqda. Ayniqsa, yurtimiz mustaqilligining 24 yillik tantanalaridagi chiqishi alohida mukofotlandi.

Sevinch Norqulova joriy yilda «Kamalak yulduzlari – 2015» bolalar ijodiyot festivalida faol ishtirok etib, maxsus sertifikat bilan taqdirlandi. «Hilola» dastasi hozirda «Sog'lom ona va bola yili»ga bag'ishlangan ajoyib konsert dasturiga tayyorgarlik ko'rmqda. Albatta, bunda Sevinch yangi raqs ijro etadi.

Nurbek QIDIRALIYEV



VATAN BU NIMA?

Men badiiy adabiyotga juda qiziqaman. Bo'sh vaqtlarimda she'r va hikoyalarni yozib turaman. Sevimli gazetam «Tong yulduzi»da chop etilayotgan she'rlarni, albatta, qiziqib o'qib chiqaman. Ulardan ilhomlanib, o'zim ham she'r mashq qildim. Yana o'zim tug'ilib o'sgan jannatmakon diyorumni juda sevaman. Har bir g'iyohini ko'zimga to'tiyo qilsam, arziydi.



Vatan bu nima?
Ayt, singlim Charos.
Vatan – bu ONA,
Dilda ehtiros.

Lobar SHOMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 110-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

Bir kuni Munira va Dildoraning onasi qizlariga ko'ylak, unga moslab sumka, tuffli olib keldi va ularni kiyib, dugonalaringiz bilan o'ynab keling, dedi. Munira yangi ko'ylak va tufflisini kiyib, tezda ko'chaga chiqib ketdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, u yur-sand holda uyga kirib keldi.

– O'yijon, olib bergan narsalaringizni ko'rib, dugonalaringizning og'zi ochilib qoldi. Bizning ham shunaqa chiroyli ko'ylagimiz bo'lsaydi, deyishdi, – so'zlardi quvonchi ichiga sig'may. Ammo Dildora bir og'iz ham so'z atmad. Buni kuzatib turgan buvisi Sarvi xola nabirasiga yuzlanib:

– Qizim, sen ham yangi kiyimlaringni maqtanmaysanmi? – deb so'radi.

– Buvijon, dugonalaring orasida Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan qizlar ham bor. Ularning onamdek, sizdek mehribonlari yo'q. Dillari o'ksimasin, degan o'yg'a bordim. Kiyimlar



IBRAT

kimdandir ustun bo'lish uchun kiyilmaydi-ku, axir. Hozircha ko'ylaklarim bor, sumkam ham yaxshi, tuffligimni hali bir-ikki oy kiyam bo'ladi, – deya javob qildi.

Dildoraning so'zlarini eshitgan buvisi:

– Barakalla, qizim, – deya nabirasining qilgan ishidan mamnun bo'ldi.

Nasiba SHAVKATOVA.
YOQUBBEK chizgan rasm

Lesson 68

2016 the year of
«Healthy mother and child»
2016-yil «Sog'lom ona va bola yili»

**MOTHER IS TREE,
CHILD IS HER FRUIT**
(ONA – DARAXT,
BOLA UNING MEVASI)



Child is the people's fruit.

Mother is tree, child is fruit.

Mother and child are flower and tulip.

Kid's happiness is mother's crown,
Kid's perfection is father's beauty.

Who has a daughter, he has happiness,
Who has a son, he has a crown.

Where is mother, there is the shame,
Where is father, there is the brilliance.

Father is mind, mother is wisdom.

Father is hand, mother is heart.

Mother is life's flower,
Child is her nightingale.

Mother's love dissolves the stone,
Mother's wrath causes the mountain.

Good child gives sugar,
Bad child gives deceive.

Who refused of people - he has refused of his parent.

Sarvinoz NAZAROVA,
the pupil of 3rd lyceum by Uzbek State World Languages University

BRAINSTORMING
(AQL CHARXI)

Put the words in the correct order to make a question.

- wear you do
What around
your neck
What do you wear around your neck?
- make in
winter do
What you _____ ?
- January till the
Children go winter holiday to the _____
- People with parents
the mountain go to
to sledding _____



Umida UMAROVA

TONGUE TWISTERS
(TEZ AYTISHLAR)

Sanjar saw Santa on the snow slide.

Winter whacks whistley wind.

Chilly chipper children cheerfully chant.

The blizzard below the blanket.

CIRCLE THE DIFFERENT WORD
(ORTIQCHA SO'ZNI BELGILANG)

Circle the word you think is different.

- Table, seat, chair, sofa
- Cold, freezing, Santa, rain
- Coat, gloves, dress, garland
- Garland, present, bauble, clock
- Sleigh, forest, lake, ocean

Kumush TURGUNOVA,
the pupil of school number 54 in Urta Chirchik district, Tashkent region

DO YOU KNOW THE SMALLEST AND THE LARGEST TYPE OF MONKEYS?

(ENG KICHIK VA ENG KATTA MAYMUNLARNI BILASIZMI?)

Dear pupils read about monkeys and enjoy a wide variety of interesting information!

There are currently 264 known monkey species. Monkeys can be divided into two groups, old world monkeys that live in Africa and Asia, and New world monkeys that live Sought America. Apes are not monkeys. Some monkeys live on the ground, while others live in trees.



Different monkey species eat a variety of foods, such as fruit, insects, flowers, leaves and reptiles. Most monkeys have tails. Groups of monkeys are known as a «tribe», «troop» or «mission». The Pygmy Marmoset is the smallest type of monkey, with adults weighing between 120 and 140 grams. The Mandrill is the largest type of monkey, with adult males weighing up to 35kg.

COMPLETE THE SENTENCES
(Gaplarni to'ldiring)

Choose one of the following verbs in the correct tense to fill each gap.



We need to ... at Po'lat's house before 4 pm. Let's go!

Mohira is ... a cake today for the birthday party.

What type of bread do you want me to ... at the store?

What ... when it started raining? Did the match stop?

Put the eggs in the water only after it has

Akmal ... that it was his money but everyone told him he was wrong.

I don't ... with your opinion but I don't want an argument.

They asked me to ... the band because I play guitar.

Prepared by Dinora SHAKIROVA

BOLALIGIM

Bolaligim – poshsholigim, Orzularga oshnoligim. Ilk ko'z ochgan chashma misol, Hayotga o'ch, tashnaligim.

Bulutlarni quchgim kelar, Osmonlarga uchgim kelar. Tubsiz, hadsiz ummonlarga, Yuragimni ochgim kelar.

Tengsiz chaman shaloladay, Cho'g', olovman ol loladay. Bolaligim ko'ngli nozik, Chirt uzilar soch toladay.

Biram dilbar, biram o'ktam, Qand-u asal, xushbo'y, xushta'm. Xotiramni tiniq qilgan, Bolaligim – billur shabnam.

Ravshan ISOQOV



XUSH KELIBSAN, YANGI YIL

Oppoq, momiq parlardan, Ko'rkam libos kiyibsan. Dalalar-u bog'larga, Yangi yil, xush kelibsan.

O'zing-la Yangi yilni, Olib keldingmi yana? Ming turfa orzularga, To'lib keldingmi yana?

Sendan ko'm-ko'k turfalar, Kutib turibmiz bizlar. Qorqiz bilan dugona, Jamalak soch sho'x qizlar.

Dilnavoz ABDURAHIMOVA, Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi 2-IDUMI 7-sinf o'quvchisi



MUSICHA

O'tirgandim qum o'ynab, Tushlik paytida kecha. «Tap» etib yerga tushdi, To'satdan bir musicha.

Qarasam, joni og'rib, Yerga qulab tushibdi. Beozor musichaning, Bir qanoti sinibdi.

Qo'lga oldim avaylab, Silab-siyab boshini. G'ani keldi ko'tarib, Palaxmon va toshini.

Qiligi shum G'anini, Berdim rosa dodini. Avaylab bog'lab qo'ydim, Qushchanning qanotini.

Bobom deydi: – Musicha Odamlarga do'st bo'lar. Musichasi bor yurtning, Ombori donga to'lar.

Risolatxon ZOKIROVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

BAXTLI BO'LIB YUR

Do'stim, bo'ldi, aslo ranjima, Mol-u dunyo o'tkinchi havas. O'zi yurar bir kun ortingdan, Yuragingni toza qilsang, bas.

Mehnat qilgin halollik bilan, Sabr degan eshikni o'mat. Quvonch bergin el-u yurtingga, Tabassumni hammaga o'rgat.

Mehr bo'lsin yurak ko'zguasi, Ustuningni sadoqatdan qur. Qayg'u qolsin sensiz armonda, Baxtilardan baxtli bo'lib yur.

Mushtariybonu MURODJONOVA, O'zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik litseyi o'quvchisi



ONAM

Dunyoda eng shirin onam yopgan non, Onamning qo'llari, taftlari issiq. Olamda yo'q do'stlar onang kabi jon, Mehringma hech narsa bo'lolmas to'siq.

Bir qo'shiq tingladim bu qo'shiq emas, Bu bir ilohiydan kelgan mo'jiza. Tol beshik tebratib uyqusiz tunlar, Alla aytar onam ta'rifi yo'q so'zga.

Dunyoda eng yaxshi ona kim desa, Bu mening xokisor, bag'ri keng onam. Mening Vatanim ham shu onam kabi, Onam ham Vatandek aziz, mukarram.

Muhayyo OTABOYEVA, Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



TASANNO

Tabiatga ofarin, olqish, Kuz ketdi-yu o'rmin oldi qish. Ko'kdan tushar mayda qor parcha, Bezaladi yam-yashil archa.

Yerning to'ni mayin va yumshoq, Pok qalbmiz qor kabi oppoq. Ko'ngillar shod, kayfiyat a'lo, Qish sehriga ayting tasanno.

Shahzoda ABDURAHMONOVA, Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

Dasturxonada yana bo'tqa turganini ko'rgach, Jonning tusi o'zgardi. – Yanami? Men bo'tqa yemayman! – Bolajonim, – yalinchoq ohangda so'z boshladi onasi, – bundan ortig'iga hozir kuchim yetmaydi.

– Doim bitta gapni qaytaraverasiz! Oyi, ayting, qachon qurbimiz yetadi o'zi? Deni, Lili, Juniordan nima kamim bor? Ulardan yaxshi o'qisam ham o'shalarday bo'lolmayman! Ularning yegani oldida, yemagani ketida. Har doim oshig'i olchi! – alam bilan so'zladidi bola.

– Havas qil, bolam, hasad qilma. Bir kun biz ham boyib qolarmiz. Mana, sen ham hademay maktabni tamomlaysan, so'ng, yaxshi universitetga kirasan, katta ishlarda ishlaysan. Bu kunlarni ko'rmagandek bo'lib ketamiz hali...

– Qachon? Tuyaning dumi yerga tekkandami? – Shaytonga hay ber, bolam, kel, yaxshisi, ovqatlanamiz. – Men bo'tqa yemayman dedim-ku!

– Xo'p, nima qil deysan, bolam? Farroshning oyligi bilan ro'zg'or tebratish

qiyin bo'lsa. Otang tirik bo'lganda, balki yaxshiroq yasharmidik?.. – Topib olgan gapingiz shu! Baridan

eshikni qarsillatib yopib, ko'chaga chiqib ketdi. U uzoq sang'idi va xiyobondagi o'rindiqlardan biriga cho'kdi. Kayfiyati

qiladigan ishim yo'q, – dedi u. Jon biroz ikkilanib turgach, eski poyabzalini etikdo'zga uzatdi.

– Dunyoning tashvishi bo'yingizga tushganga o'xshaydi... Nega buncha g'amginsiz?

Jon birinchi marta uning kambag'alligidan kulmaydigan va uni kamsitmaydigan inson topgandek bo'ldi. U dardlarini aytib, ko'ngil chigilini yozdi.

– Men ham siz kabi yetimman, – dedi etikdo'z bola uning gaplarini eshitgach. – Na onam bor, na otam. Bu dunyoda singlimdan bo'lak yaqinim yo'q. Ertalab maktabga boraman. Darsdan so'ng bu yerga kelaman. Topganim ro'zg'orga uchma-uch yetadi. Lekin shunisiga ham shukur! Nolishga haqqim yo'q, chunki bizdan battarlar bor. Och-nahor yashayotganlar qancha...

Jon etikdo'z bolaning gaplarini eshitib, o'z holidan noliganiga uyaldi.

– Mana, poyabzalingiz yangiday bo'ldi. Endi men boray, singlim ko'zlarini to'rt bo'lib kutib o'tirgandir. Bo'tqa pishirishim kerak. U hali kichkina, ovqat qilishni bilmaydi...

Etikdo'zning ortidan qarab qolgan Jonning bo'g'ziga achchiq bir narsa tiqilganday bo'ldi. Bola oqsoq edi...

Rus tilidan

Jamshid MATYOQUBOV tarjimai

ETIKDO'Z SABOG'I

Tom ODENKRANS



yo'q, yelkasiga tog' ag'darilganday va bu yukning dastidan bu kchayib borayotganday edi, nazarida.

– Poyabzalingiz yirtilgan ekan, tikib beraymi? – so'radi birov.

Shundagina Jon o'rindiqli qarshisida o'tirgan o'zidan chamas uch-to'rt yoshlar kichik etikdo'z

charchab ketdim! Ona yig'isini yashirish uchun orqa o'girdi. Jon-jahdi bilan o'midan turdiy-u,

bolani ko'rdi. – Pulim yo'q, – dedi u dag'al ohangda. – Pulini topganda berarsiz, baribir



SURXONNING ALP KELBAT O'G'LONI

Abdug'ani aka o'g'li Shahzodbekni jahon chempionatiga kuzatarkan, qo'llarini duoga ochib, «Yuzing yorug', toleing yalanz bo'lsin, o'g'lim», deya niyat qildi.

Ota duosi ijobat deganlariday, yosh polvonni xalqaro musobaqada Yaratganning o'zi qo'lladi. U yaqinlarining mehri, ona xalqining ishonchini dildan his etib, o'tkazilgan har bir jangda bor mahoratini ishga soldi.

Bir kuni erta tongda Abdug'ani akaning qo'l telefoni uzoq jiringladi.

– Allo, allo, dada, men jahon chempioni bo'ldim!

Bu xushxabarni eshitgan otaning ko'zlariga beixtiyor yosh qalqdi. Shunday jasur, mard o'g'li borligidan g'ururlandi...

Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi «Surxon sohili» mahallasida yashovchilar endigina o'n yetti yoshni qarshilagan Shahzodbek Azizovga havas bilan qaraydi. Negaki, qahramonimiz hali yosh bo'lishiga qaramay, sportda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan. Ayni paytda Termiz ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji o'quvchisi bo'lgan Shahzodbek, mana bir necha yildirki, Surxondaryo viloyati IIB «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati murabbiyi

Bahodir Tursunovdan sport sir-asrorlarini puxta o'zlashtirib kelmoqda. Shu kungacha ushbu yosh sportchi qo'l jangi bo'yicha uch karra O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. Qolaversa, Shahzodbek 2013-yil Rossiyaning Volgodonsk shahrida 14–17 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida kumush medalni qo'lga kiritdi. U bu muvaffaqiyatlar bilan cheklanib qolmay, shu yili Rossiyaning Kaliningrad shahrida bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida oltin medalga sazovor bo'ldi. Ustozlari, ota-onasi, tug'ilib o'sgan yurti ishonchini oqladi.

– Bundan uch yil avval bo'lib o'tgan dunyo birinchiligida ham muvaffaqiyatli ishtirok etgan bo'lsam-da, oltin medalni qo'lga kiritma olmaganim edim. Shukurki, bu gal ana shu orzum ushlab, jahon chempioni degan nomga erishdim, – deydi Shahzodbek Azizov. – Bu yutuqlar zamirida mamlakatimizda biz farzandlarni sog'lom va barkamol insonlar etib

tarbiyalash, o'z iqtidorimizni namoyon etish uchun ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik yotibdi. Nasib bo'lsa, bundan keyingi xalqaro musobaqalarda ham ona Vatanim sharafini munosib himoya qilishga va'da beraman.

Yosh sportchidan o'zi tahsil olayotgan Termiz ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji ustozlari ham minnatdor. U fanlarni o'zlashtirishda tengdoshlariga o'rnak, ta'lim muassasasida o'tkaziladigan jamoat tadbirlarida esa faol ishtirok etadi.

– Kollejimizda 14 ta O'zbekiston, 4 ta Osiyo, 1 ta jahon chempioni bo'lgan iqtidorli o'quvchilar tahsil oladi, – deydi kollej direktori Isroil Botirov.

Mamlakatimizda yoshlarni sportga jalb etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar yuksak samaralar bermoqda. Buni birgina Shahzodbek Azizov qo'lga kiritgan yutuqlar misolida ham ko'rish mumkin. Biz ushbu iqtidorli sportchimizga kelajak orzularing ijobat bo'lsin, deya tilak bildiramiz.

Sa'dullo TURSINOV



Xalqaro maydonda mamlakatimizning sport sohasidagi shon-shuhratini yuksaltirish, o'zbek futbolini nufuzini oshirish, milliy futbol hakamlari maktabini rivojlantirish ishiga qo'shgan munosib hisssasi uchun ushbu yurtdoshimiz Prezidentimiz Farmoniga muvofiq 2014-yil «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan edi.

Kuni kecha Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida Yevropa klublari assotsiatsiyasi tomonidan dunyo futbolida yorqin iz qoldirgan kishilarni «Globe Soccer Awards – 2015» mukofoti bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Quvonarlisi, e'tirof etilganlar orasida FIFA referisi Ravshan Ermatov ham bor. U «Yilning eng yaxshi hakami» deb topildi. Biz mahoratli hakamimizni ushbu nufuzli mukofot bilan muborakbod etamiz.

Nozima JAVHAROVA

OZARBAYJONDAN G'ALABA BILAN



Yaqinda Ozarbayjonda boks bo'yicha yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda mamlakatimiz vakillari 3 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritishdi. Hamyurtimiz Otabek Xolmatov 49 kilogrammgacha bo'lgan bokschilar orasida tengsiz deb topildi. Yarim finalda ozarbayjonlik Elvin Safarovni texnik nokautga uchratgan sportchimiz final bosqichda Qozog'iston vakili Vasily Samchukni mag'lub etdi va shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

Yana bir vakilimiz Ulug'bek Sobirov vazni 69 kilogrammgacha bo'lgan bokschilar o'rtasida qozog'istonlik Sadriddin Ahmedovni yarim finalda yenggan bo'lsa, so'nggi bosqichda mezbonlardan Parviz Guliyevni mag'lubiyatga uchratib, oltin medal sohibi bo'ldi.

Sportchilarimizdan Shohruz Rahimov 91 kilogrammgacha vazndagi charmoqlqop ustalari o'rtasida Rossiya va Qozog'iston vakillaridan iborat raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, birinchilardan bo'ldi.

Hamyurtlarimizdan Shunqor Abdurasulov o'z vazn toifasida kumush, Rahmatulla Qo'ziyev va Jamshid Abdullayev esa bronza medaliga munosib deb topildi.

MUVAFFAQIYATLAR SARI OLG'A

XXI asrni intellektual salohiyatlar asri, desak asosli fikr yuritgan bo'lamiz. O'zbekiston yoshlari har jabhada bor iste'dodlarini namoyish etishmoqda.

Buxoro vakillaridan iborat raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, birinchilikni qo'lga kiritdi.

Hozirgi kunda Mirobod tumanidagi 294-umumta'lim maktabining 9-«G» sinfidagi ta'lim olayotgan Miraziz Soliyev navbatdagi mamlakat chempionatida ham g'alaba qozonib, Osiyoga yo'l olishni niyat qilgan. Yangi muvaffaqiyatlar sari olg'a, chempion!

Nozima JAVHAROVA

Shukrulla G'ULOM

Bizga maktub yo'llabsiz...

Bolajonlar, 2015-yil davomida siz azizlardan juda ko'p maktublar oldik. Ularni o'qir ekanmiz, iqtidorli, sportchi tengdoshlaringizning erishgan muvaffaqiyatlaridan biz ham quvondik. Orangizda rasm chizishga, she'r yozishga qiziqadigan, maktablarda o'tkazilayotgan tadbirlar-u, ustozlari haqida to'liqlanib yozadigan bolalar borligidan boshimiz ko'kka yetdi.

Mana, «Keksalarni e'zozlash yili»ni yakunlab, yangi 2016-yil – «Sog'lom ona va bola yili»ni ham kutib oldik. 2015-yilda bizga maktub yo'llagan eng faol o'quvchilaringiz safiga siz aziz bolajonlarning ham qo'shilishingizni juda-juda istaymiz. Quyida ana shunday bizga maktub yo'llagan o'quvchilarning dil nomalari bilan tanishasiz.

MATEMATIKA FANIGA OIZIOAMAN

Men she'r yozishga, matematika faniga juda qiziqaman. 2014–2015-yillarda bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman va viloyat bosqichlarida qatnashdim. Tengdoshlarimning bilimlarini sinab ko'rish maqsadida, qiziqarli masala tuzdim. Qani, uni bir yechib ko'ring-chil!

0 4 2
1 3 8

NECHTA RAOAM?

11.....11 soni 41 soniga bo'linadi. Qanday eng kichik 11.....11 soni 41 ga bo'linadi? Bu sonning raqamlari nechtagini toping.

Behzod O'TKIROV,

Jizzax viloyati, Forish tumanidagi

38-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

ISHLA QALAMIM, BO'YA BO'YOG'IM

Yangi yil bayrami barchaga o'zgacha kayfiyat bag'ishlashi shubhasiz. Bu kayfiyat bayram nafasi ufurib turgan chizgilaringizda ham ko'rinib turibdi. Sizlarni ana shu rasmlardan tashkil etilgan kichik ko'rgazmamizga taklif qilamiz.

«Bayram muborak!»



Islombek O'KTAMOV, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi profilni mehnat ta'limiga ixtisoslashtirilgan 191-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi

Obidjon NE'MATOV, Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 6-«G» sinf o'quvchisi

«Sovg'alarim bolalarga!»



«Qorbobo yo'lga chiqdi»



Gavhar RIXSIBOYEVA, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

O'ZBEKISTON BIR O'LKAKI...

Bilasizmi?

Yer maydoni – 447,4 ming kvadrat kilometr.
Aholisi – 31 millionga yaqin kishini tashkil etadi.



Poytaxti – Toshkent shahri (aholisi 2,5 million kishidan ortiq).

Mustaqillik kuni – 1-sentyabr

Ma'muriy-hududiy ko'rinishi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat, 162 tuman, 118 shahar va shahar andozasidagi aholi punktlari.

Davlat tili – o'zbek tili.

Davlat ramzlari – bayroq, gerb, madhiya.

Pul birligi – so'm.


Davlat qurilishi – Respublika.

Konstitutsiya kuni – 8-dekabr.

BONU tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

1. Qattiq sovuq.
2. Yangi yil daraxti.
3. Muzda sirpanchiq o'yini.
4. Qor (ruschada).
5. Bilim.
6. Qishning 2-oyi.
7. Qorboboning qiz nabirasi.
8. Qishki qo'l kiyimi.
9. Qishki poyabzal.
10. Qish aravachasi.
11. Qish qahratonida ham ochiladigan gul.
12. Salomga javob.
13. Qorning kristall holati.
14. Sovg'alar bor bobo.
15. Supurgisi uchadigan kampir.
16. Yevropaliklarning qorbosi.
17. Qor bo'laji.
18. Qishki rolik.



Anvarjon ABDULLAYEV, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

Shuningdek, tahririyatimizga Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidan Feruz Nazarov, Gavhar Ahatova, Shahnoza Mamasoliyeva, Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi Gulruxsor Ro'zmetova, Hazorasp tumanidagi 47-umumta'lim maktabi o'quvchisi Asalxon Ataxonova, 2-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi Marvarid Rustamova, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Sohiba O'saraliyeva ham o'zlarining qiziqishlari haqida maktub yo'llashgan.

Sizlardan yangi yilda ham maktublar kutamiz. Unutmang, sizning har bir maktubingiz nazardan chetda qolmaydi.

Maktublarni OZODA saraladi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nodira
NAZAROVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 45 008
Buyurtma – S 4813

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.